

OLTINSOY TUMANIDAGI XO‘JA HASAN ILG‘ORIY, QIYIQ OTA VA XO‘JAG‘OR OTA ZIYORATGOHLARINING TARIXIY-ETNOGRAFIK XUSUSIYATLAR

Ochildiyeva Sitora Eshonqul qizi

Termiz davlat universiteti

Tarix ta‘lim yo‘nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21213435>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanida joylashgan Xo‘ja Hasan Ilg‘oriy (Kaptarxona), Qiyiq ota (Kiyik ota) va Xo‘jag‘or ota (Avliyoxon eshon) ziyoratgohlarining tarixiy shakllanishi, ular bilan bog‘liq xalq rivoyatlari, diniy e‘tiqodlar hamda etnografik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mahalliy og‘zaki manbalar, rivoyatlar va dala materiallari asosida mazkur qadamjolarning voha aholisi ma‘naviy hayotidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ziyoratgohlar bilan bog‘liq urf-odatlar, ziyorat marosimlari va xalq e‘tiqodlarining shakllanish omillari ilmiy nuqtai nazardan baholangan. Tadqiqot natijalari Oltinsoy tumanidagi muqaddas qadamjolar nafaqat diniy ziyorat maskanlari, balki hududning tarixiy xotirasi, etnomadaniy merosi va nomoddiy madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan muhim tarixiy-etnografik obyektlar ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Oltinsoy tumani, ziyoratgoh, Xo‘ja Hasan Ilg‘oriy, Kaptarxona, Qiyiq ota, Kiyik ota, Xo‘jag‘or ota, Avliyoxon eshon, xalq rivoyatlari, etnografiya, nomoddiy madaniy meros, muqaddas qadamjolar.

Oltinsoy tumani Surxondaryo viloyatining tarixiy-madaniy merosi boy hududlaridan biri bo‘lib, bu yerda xalqning ko‘p asrlik diniy e‘tiqodi, urf-odatlari va og‘zaki ijodi bilan bog‘liq ko‘plab muqaddas qadamjolar saqlanib qolgan. Ayniqsa, Mirshodi va unga tutash hududlarda joylashgan Xo‘ja Hasan Ilg‘oriy (Kaptarxona), Qiyiq ota (Kiyik ota) hamda Xo‘jag‘or ota (Avliyoxon eshon) ziyoratgohlari mahalliy aholining diniy-ma‘naviy hayotida muhim o‘rin tutadi.

Ushbu ziyoratgohlar o‘zining shakllanish tarixi, ular bilan bog‘liq rivoyatlar, avliyolar haqidagi xalq tasavvurlari hamda ziyorat an‘analari bilan Oltinsoy vohasining etnomadaniy merosini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Mazkur qadamjolar nafaqat ziyorat maskani, balki voha aholisining tarixiy xotirasi, xalq og‘zaki ijodi va mahalliy e‘tiqodlarining uzviy qismi sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Ana shunday ziyoratgohlardan biri bu, Xo‘ja Hasan Ilg‘oriy yoki xalq orasida Kaptarxona ziyoratgohi nomi bilan mashhur bo‘lgan muqaddas maskan Surxondaryo vohasining qadimiy ziyoratgohlaridan biri hisoblanadi. Me‘moriy va etnografik xususiyatlariga ko‘ra, ziyoratgohning hozirgi ko‘rinishi asosan XIX–XX asrlarda shakllangan bo‘lib, uning atrofi mahalliy uslubda barpo etilgan devor bilan o‘ralgan. Ziyoratgoh hududida ikki qabr mavjud bo‘lib, ulardan biri Xo‘ja Hasan Ilg‘oriy, ikkinchisi esa Avval xalifaga nisbat beriladi.

Asosiy qabr Xo‘ja Hasan Ilg‘oriy nomi bilan ataladi. Mahalliy ma‘lumotlarga ko‘ra, uning uzunligi 34 metr, eni 2 metr va balandligi 11,5 metrni tashkil etadi. Qabrning tashqi qismi sement bilan suvalgan bo‘lib, tepasiga tog‘ echkisi va kiyik shoxlari o‘rnatilgan, ular orasiga esa qora rangli shox qo‘yilgan.

Ushbu shoxlar mahalliy xalq tasavvurida muqaddaslik, himoya va tabiat bilan uyg'unlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Ikkinchi qabr Avval xalifaga tegishli bo'lib, tuzilishi jihatidan birinchi qabrga o'xshash bo'lsa-da, hajmi ancha kichikdir.

Mahalliy rivoyatlarga ko'ra, Xo'ja Hasan Ilg'oriy milodiy 582–630 yillarda yashagan sahobalardan biri bo'lib, o'zining jasorati, dovyurakligi hamda favqulodda xotira qobiliyati bilan ajralib turgan. Rivoyatlarda uning islom ilmlariga oid risolalar yozgani va shu bois "Ilg'oriy", ya'ni "tez anglovchi", "ziyrak" ma'nolarini anglatuvchi laqab bilan mashhur bo'lgani ta'kidlanadi.

Mazkur ma'lumotlar ilmiy tarixiy manbalarda emas, balki asosan xalq og'zaki ijodi va mahalliy rivoyatlar orqali saqlanib kelgan.

Ziyoratgohning kelib chiqishi bilan bog'liq eng mashhur rivoyatlardan birida Hazrati Ali ibn Abu Tolibning Movarounnahr tomon yurishlari tasvirlanadi. Rivoyatga ko'ra, uzoq vaqt davomida undan xabar bo'lmagach, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) sahobalaridan uning holidan xabar olishni so'raydilar. Shu paytda Xo'ja Hasan Ilg'oriy bu vazifani zimmasiga olib, Hazrati Alini topadi va u bilan birgalikda janglarda qatnashadi.

Janglarning birida og'ir yarador bo'lgan Xo'ja Hasan Ilg'oriy vatanga qayta olmasligini anglab, kabutar orqali Hazrati Alining sog'-omonligi haqida xabar yuboradi. Rivoyatga ko'ra, Payg'ambar (s.a.v.) ushbu xabarni olgach, uning yotgan joyini muqaddas maskanga aylanishini tilab duo qilganlar. Shundan so'ng mazkur hudud ziyoratgoh sifatida e'zozlana boshlagan. Aynan shu rivoyat tufayli ziyoratgoh xalq orasida Kaptarxona nomi bilan ham mashhur bo'lib ketgan.

Ziyoratgoh hududidagi ikkinchi qabr Avval xalifaga tegishli deb e'tirof etiladi. Mahalliy rivoyatlarga ko'ra, Avval xalifa 1820-yilda tavallud topib, 1910-yilda vafot etgan. Uning tug'ilishi bilan bog'liq rivoyatda befarzand ayolning pir huzurida farzand tilab qilgan iltijosi va piring duosi natijasida dunyoga kelgani hikoya qilinadi. Rivoyatga ko'ra, pir chaqaloqqa "Avval xalifa" deb ism qo'ygan hamda uning kelajakda ulug' inson bo'lishini bashorat qilgan. Mahalliy aholining e'tiqodiga ko'ra, bu bashorat keyinchalik o'z tasdig'ini topgan.

Keyingi davrlarda Avval xalifaning o'g'illari Bo'ri xalifa va Xo'jamqul xalifa, shuningdek, Xo'janazar xalifaning o'g'li Tog'aynazar xalifa hamda uning o'g'li Eshboy ham shu hududga dafn etilgan. Bu holat ziyoratgohning avlodlar davomida diniy-ma'naviy markaz sifatida qadrlanib kelganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda mahalliy aholi Xo'ja Hasan Ilg'oriy ziyoratgohini muqaddas qadamjo sifatida e'zozlaydi. Ayniqsa, farzand tilagan oilalar, sog'lik, rizq va turli mushkullarning yechimini so'rab keluvchilar ushbu maskanga muntazam ziyorat uyushtiradilar. Xalq e'tiqodiga ko'ra, samimiy niyat bilan qilingan duolar ushbu maskanda ijobat bo'ladi. Shu jihatdan ziyoratgoh nafaqat tarixiy obida, balki voha aholisining diniy qarashlari, og'zaki ijodi va mahalliy e'tiqodlarini o'zida mujassam etgan muhim etnografik meros obyektlaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qiyiq ota yoki mahalliy aholi orasida Kiyik ota ziyoratgohi nomi bilan mashhur bo'lgan muqaddas maskan Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumani Mirshodi qishlog'ida joylashgan.

Ziyoratgoh tabiiy landshaft bilan uyg'unlashgan bo'lib, uning ikki tomonini adirliklar, o'rtasini esa katta soy o'rab turadi.

Qadamjo soy bo'yida qad rostlagan bo'lib, qadimda oddiy paxsa devor bilan ihota qilingan. Vaqt o'tishi natijasida mazkur devorlarning aksariyati yemirilgan. Ziyoratgoh markazida baland qilib ko'tarilgan yagona qabr mavjud bo'lib, uning tepasiga ikki dona kiyik shoxi o'rnatilgan. Atrofida boshqa qabrlarning yo'qligi ushbu maskanning alohida e'tiqodiy ahamiyat kasb etganligini ko'rsatadi.

Mahalliy rivoyatlarga ko'ra, ziyoratgohning shakllanish tarixi XVIII asr o'rtalariga borib taqaladi. Taxminlarga ko'ra, taxminan 1750-yillarda Termiz ota hududidagi Xo'jaoblov konidan yetti nafar aka-uka ko'chib kelib, Xo'jaipok atrofiga joylashgan. Xalq og'zaki ma'lumotlariga ko'ra, ularning har biri keyinchalik alohida qishloqlarda dafn etilgan. Ushbu avliyolardan yettinchisining qabri bugungi Kiyik ota ziyoratgohi sifatida e'zozlanadi. Biroq qabr egasining asl ismi va shaxsiga oid aniq tarixiy ma'lumotlar saqlanmagan.

Mahalliy og'zaki an'analarda ziyoratgoh tarixi yuz yoshdan oshgan Mulla Mamaraim boboning rivoyatlari orqali ham saqlanib qolgan. Uning hikoya qilishicha, qadamjo hududiga kelgan solih inson shu yerda hujra barpo ettirib, uch tup tut daraxtini ekan hamda umrining qolgan qismini ibodat va ma'rifat tarqatishga bag'ishlagan. U qishloq bolalariga diniy ta'lim bergan, shuningdek, duo va dam solish orqali og'ir dardga chalingan bemorlarni davolagan. Shu sababli u mahalliy aholi orasida karomat sohibi sifatida katta hurmat qozongan.

Ziyoratgoh bilan bog'liq eng mashhur rivoyat ushbu zotning kiyik bilan bog'liq voqeasi hisoblanadi. Rivoyatga ko'ra, u yoshligida mohir ovchi bo'lgan. Bir kuni tog'da yarador kiyikni ovlamoqchi bo'lganida, jonivorning ojiz holatini ko'rib, unga rahmi keladi. Ma'lum bo'lishicha, kiyik yangi bolalagan va o'zi ham jarohatlangan edi. Shundan so'ng u ov qilish niyatidan voz kechib, kiyikni tog' giyohlari yordamida davolaydi hamda bolalari mustaqil harakatlana olguncha uning yonida qoladi. Kiyik sog'aygach, tabiat qo'yniga qaytadi. Rivoyatlarda ta'kidlanishicha, shu voqeadan keyin ovchi butunlay ovchilikni tark etib, umrini ibodat va taqvoga bag'ishlagan.

Mahalliy aholining e'tiqodiga ko'ra, ushbu voqeadan keyin kiyiklar mazkur zotga alohida mehr qo'ygan. Hatto ayrim rivoyatlarda kiyik avlodlari har hafta chorshanba kuni uning qabrini ziyorat qilish uchun kelishi aytiladi. Garchi bu rivoyat tarixiy jihatdan tasdiqlanmagan bo'lsa-da, u voha aholisi tasavvurida inson va tabiat o'rtasidagi ma'naviy uyg'unlikni ifodalovchi ramziy qarash sifatida muhim o'rin tutadi.

Xalq orasida saqlanib qolgan og'zaki ma'lumotlarda Kiyik ota karomat ko'rsatgan avliyo sifatida tasvirlanadi. U yo'qolgan mol-mulkni topishda yordam bergani, mushkul vaziyatga tushgan kishilarga maslahat bergani hamda dardmand insonlarni duo bilan davolagani haqida ko'plab rivoyatlar mavjud. Rivoyatga ko'ra, u 53 yoshida yana o'sha ona kiyik bilan uchrashgan va kiyik uning huzurida jon bergan. Avliyo vasiyatiga binoan kiyikni shu yerga dafn qilgan.

Oradan yillar o'tib, o'zi ham 74 yoshida vafot etgach, aynan kiyik dafn etilgan joy yoniga qo'yilgan. Shundan boshlab mazkur maskan "Kiyik ota" nomi bilan mashhur bo'lib, qabr ustiga kiyik shoxlari o'rnatilishi ushbu rivoyatning ramziy belgisi sifatida saqlanib qolgan.

Bugungi kunda Kiyik ota ziyoratgohi voha aholisi orasida muqaddas qadamjo sifatida e'tirof etiladi. Mahalliy e'tiqodlarga ko'ra, bu yerga kelib ixlos bilan ziyorat qilgan, Allohga samimiy duo va iltijo bilan murojaat qilgan insonlarning ezgu niyatlari ijobat bo'ladi.

Shu jihatdan mazkur ziyoratgoh nafaqat diniy ziyorat maskani, balki Surxondaryo vohasining xalq og‘zaki ijodi, etnografik qarashlari va muqaddas qadamjolar bilan bog‘liq qadimiy e‘tiqodlarini aks ettiruvchi muhim madaniy meros obyektlaridan biri hisoblanadi.

Xo‘jag‘or ota yoki Avliyoxon eshon ziyoratgohi Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumani Mirshodi qishlog‘ida joylashgan muqaddas maskanlardan biridir. Ziyoratgoh katta adir etagida, Qora ariq bo‘yida qad rostlagan bo‘lib, uning tabiiy geografik muhiti sayxonlik va adirliklardan iborat. Mahalliy aholi mazkur suv oqimini Chumchuqli soy nomi bilan ham ataydi. Rivoyatlarga ko‘ra, qadimda bu hududdan Tentak daryo oqib o‘tgan bo‘lsa, hozirgi kunda uning o‘rnida Sho‘rchi hududi orqali Surxon daryosiga quyiluvchi yirik anhor mavjud. Ushbu suv manbai atrofidagi yerlarda asosan sholichilik rivojlangan.

Mahalliy og‘zaki ma‘lumotlarga ko‘ra, ziyoratgoh Avliyoxon eshon nomi bilan bog‘liq.

Rivoyatlarda u 1795-yilda tavallud topgani, 1871-yilda vafot etgani hamda Saidlar avlodiga mansub bo‘lgani qayd etiladi. Avliyoxon eshon 1829-yilda Samarqanddan Mirshodi hududiga ko‘chib kelgan. U sodda turmush tarzi, kamtarligi va faqirona hayoti bilan ajralib turgani sababli dastlab mahalliy aholi uning diniy mavqei va ilmiy salohiyatini anglamagan. Aksincha, uni oddiy va kambag‘al inson sifatida qabul qilgan.

Xalq orasida saqlanib qolgan rivoyatlarda Avliyoxon eshonning bashoratgo‘ylik fazilatlarini alohida ta‘kidlanadi. Rivoyatlardan biriga ko‘ra, u yoz faslida yaqinlashayotgan tabiiy ofatni oldindan sezib, qishloq aholisini g‘alla va boshqa hosillarni zudlik bilan yig‘ishtirib olishga da‘vat etadi. Biroq mahalliy aholi uning ogohlantirishiga ishonmaydi va bu maslahatni mensimaydi.

Oradan uch kun o‘tgach, ob-havo keskin o‘zgarib, qor yog‘ishi natijasida ekinlarga va chorva mollarga katta zarar yetadi. Mazkur voqea xalq xotirasida Avliyoxon eshonning karomatlaridan biri sifatida saqlanib qolgan.

Yana bir rivoyatda Avliyoxon eshonning mahalliy boylar bilan bog‘liq voqeasi hikoya qilinadi. Unda boylardan biri uning eshonlik maqomini shubha ostiga olib, karomat ko‘rsatishini talab qiladi. Rivoyatga ko‘ra, Avliyoxon eshon Allohga iltijo qilganidan so‘ng osmonda qora bulut paydo bo‘lib, qaynab turgan qozonlar ustiga tosh yog‘a boshlaydi. Ushbu hodisadan larzaga kelgan boylar tavba qilib, undan uzr so‘rashadi hamda keyinchalik Avliyoxon eshonni katta hurmat bilan e‘zozlay boshlaydilar. Mazkur rivoyat xalq tasavvurida avliyoning ilohiy qudrat va karomat sohibi sifatidagi mavqeini ifodalovchi muhim og‘zaki manbalardan biri hisoblanadi.

Rivoyatlarga ko‘ra, Avliyoxon eshon umrining asosiy qismini jar yoqasidagi g‘orda ibodat va taqvo bilan o‘tkazgan. Mazkur g‘or uning boshpanasi va xilvatgohi vazifasini bajargan. U vafot etgach, vasiyatiga muvofiq aynan shu hududga dafn etilgan. Shundan so‘ng mazkur maskan xalq orasida Xo‘jag‘or ota yoki Avliyoxon eshon mozori nomlari bilan mashhur bo‘lib ketgan.

Dastlab qabr atrofi oddiy devor bilan o‘ralib, uning ustiga oq bayroq (jalov) o‘rnatilgan.

Mahalliy an‘analarda oq bayroq muqaddas qadamjo va ziyoratgohning ramzi sifatida talqin qilinadi. Vaqt o‘tishi bilan ushbu maskan voha aholisi muntazam ziyorat qiladigan muqaddas joyga aylangan. Keyinchalik ziyoratgoh atrofiga mahalliy aholining marhumlari ham dafn etilib, hudud yirik qabriston sifatida shakllangan.

Mahalliy ma'lumotlarga ko'ra, 1882-yildan boshlab Xo'jag'or ota mozori rasman ziyoratgoh sifatida e'tirof etilib, voha aholisining diniy va ma'naviy hayotida muhim o'rin egallay boshlagan. Bugungi kunda ham ushbu qadamjo Surxondaryo vohasidagi muqaddas ziyorat maskanlaridan biri sifatida e'zozlanib, u bilan bog'liq rivoyatlar, karomatlar va xalq e'tiqodlari avloddan avlodga og'zaki tarzda yetkazib kelinmoqda. Shu jihatdan Xo'jag'or ota ziyoratgohi nafaqat diniy maskan, balki hududning tarixiy xotirasi, xalq og'zaki ijodi va etnografik merosini aks ettiruvchi muhim madaniy obyekt sifatida ilmiy tadqiqotlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchala ziyoratgoh tahlili shuni ko'rsatadiki, ular Oltinsoy tumanining tarixiy-madaniy landshaftida o'ziga xos o'rin egallaydi. Ziyoratgohlar bilan bog'liq rivoyatlar islomiy qadriyatlar, mahalliy urf-odatlar va qadimgi e'tiqodlarning sintezini aks ettiradi. Xususan, Xo'ja Hasan Ilg'oriy ziyoratgohi islomning vohada tarqalishi bilan bog'liq rivoyatlar, Qiyiq ota ziyoratgohi tabiatga ehtirom va avliyolik haqidagi xalq tasavvurlari, Xo'jag'or ota ziyoratgohi esa tasavvuf, karomat va mahalliy diniy an'analarni ifodalashi bilan ajralib turadi.

Mazkur qadamjolar Oltinsoy tumanining nomoddiy madaniy merosi tarkibiy qismi sifatida tarix, etnografiya, folklorshunoslik va dinshunoslik nuqtai nazaridan kompleks o'rganishga loyiq obyektlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nazarova Sh., Ashurov J. Surxondaryo viloyatidagi diqqatga sazovor ziyoratgohlar // Journal of Universal Science Research. – 2024. – Vol. 2, Issue 4. – B. 115–119.
2. To'rayev O'. S. "Oltinsoy–Denov" ziyoratgohlar maskani // International Conference on Medicine, Science, and Education. – 2025. – Vol. 2, Issue 5. – B. 111–118.
3. Nazarova Sh. X., Ashurov J. Surxondaryo viloyatidagi diqqatga sazovor ziyoratgohlar // Journal of Universal Science Research. – 2024. – Vol. 2, Issue 4. – B. 115–119.
4. Safarova Sh. Sh. Oltinsoy toponimlarining struktur-semantik tahlili // Ilm vaqti. – 2025. – T. 4, № 5/1. – B. 219–223.
5. Mojizaviy maskanning tuhfalari // QVZ.uz. – URL: <https://qvz.uz/qiziq/mojizaviy-maskanning-tuhfalari.html>
6. Mirzayev R. So'fi Olloyorga zamon boqajak. – Toshkent, 2006. – 160 b.
7. Jo'rayeva S. Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish agentligi, 2022. – 320 b